

MENEJMENT XAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

Xudoyberdiyev Begzod To'lqin o'g'li

Samarqand Davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

E-mail: bekaxudoyberdiyev87@gmail.com

Qodirov Shohzodjon Asqar o'g'li

Samarqand Davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

E-mail: godirovshahzod34@gmail.com

Annotatsiya: *Boshqaruv, yoki menejment, tashkilotning maqsadlarini erishish uchun resurslarni tartibga solish va ularga rahbarlik qilish jarayoni hisoblanadi. Menejmentning asosiy vazifalari, resurslarni, masalan, odamlarni, moliyaviy mablag'larni, va vaqtlnarni boshqarish va ulardan foydalanishni tartibga solishdir. Menejmentning umumiy tushunchasi biror tashkilotning boshqarish jarayonlarini o'rganishni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *Boshqaruv, tashkilot, iqtisod.*

Mustaqil O'zbekiston davlatini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash ko'p jihatdan zamon talabiga javob beradigan rahbar va mutaxassislarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejerlarni (boshqaruvchilarni) tayyorlashda «Menejment» fani alohida o'rinn egallaydi.

«Menejment » fanining asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan malakali boshqaruvchilarni tayyorlash, ya'ni o'quvchilarda zamonaviy fikrni shakllantira oladigan, xo'jalik yuritish va boshqaruvda yangicha usullarni qo'llay oladigan, shuningdek, rahbarlik san'ati sirlarini o'rgana oladigan darajada nazariy va amaliy bilimlar berishdir. Shuningdek, talabalarda O'zbekistonda va xorijda ishlab chiqarishni boshqarish nazariyasi va amaliyotining rivojlanish bosqichlarini, firmani muvaffaqiyatli boshqarish, biznesda ichki va tashqi muhit, rahbarlik va hokimiyat, tashkilotning samarali faoliyat ko'rsatishida ishlab-chiqarishni boshqarish hamda tashkilotdagi nizo (ixtilof) masalalarini bartaraf etishni o'rgatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ham fanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Fanning asosiy vazifasi korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish, shuning negizida bozorni zarur yuqori sifatli xalq iste'moli mahsulotlari bilan boyitish, jahon bozoriga chiqishga kcng yo'l ochish va o'z mahsulotlarini xorijiy davlatlarda raqobatbardosh qilib tayyorlash, uni valyutaga sotish va bu bilan rcspublika iqtisodiyotini boshqarishni xalqaro andozalarga olib chiqadigan kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yishning ilmiy negizini yaratishdir.

«Menejment » fani muayyan iqtisodiy, ijtimoiy fanlar, xalq xo'jaligini rejalashtirish, statistika, buxgalteriya hisobi, moliya, kredit, rejalashtirishning iqtisodiy matematik usullari, psixologiya, huquqshunoslik va iqtisodiyot nazariyasi kabi fanlar bilan uzviy bogliqdir.

Fanning vazifasi iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik ilmlarning mavjud yutuqlaridan ishlab chiqarishni boshqarishda maqsadga muvofiq foydalanish natijasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi g'oyalarni amaliyatga tatbiq qilish va nihoyat, bular asosida mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalq farovonligini oshirishdir. Bu fanning predmeti boshqaruvchi tizim va boshqarish obyekti orasidagi o'zaro munosabatdir. Shuningdek, korxonalar, birlashmalar, ularning tarkibiy birliklari, muassasalar, assotsiatsiyalar, konsorsiumlar va konsernlar hamda turli tashkilotlarda boshqarish qonuniyatları va tamoyillarini o'rganish fanning asosini tashkil qiladi.

Boshqaruv fikri g'oyatda nomuntazam holda rivojlangan. Bir necha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular ba'zida bir-birlariga mos kelgan, ba'zida esa bir-birlaridan ancha farqlangan. Odamlar va texnika boshqaruv obyektlari bo'lgan, shuning uchun boshqaruvdagagi muvaffaqiyatlar ko'proq boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlarga bog'liq bo'lgan. Jamiyat, texnika rivojlangani sari boshqaruv bo'yicha mutaxassislar tashkilot faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida bila boshlaganlar.

Menejmentning samaradorligi ko'proq darajada ilmiy yondashuvlar va tamoyillardan foydalanish bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtida amaliyatda menejmentga nisbatan faqat ba'zi bir ilmiy yondashuvlar va tamoyillar qollaniladi, bu uni tushunishni «torligi» bilan izohlanadi. Har bir obyektni boshqarishning nazariyasi va amaliyoti tahlili R.A. Fatxutdinov bo'yicha menejmentga nisbatan o'z ilmiy yondashuvlarini qo'llash zarurligini belgilashga imkon beradi

Ushbu yondashuvlarni boshqaruvning asosiy tamoyillariga kiritish mumkin. Boshqaruv jarayonlarini aniq obyektlarini boshqarish jarayonda boshqaruv subyektlari (idoralari) amal qilishlari kerak bo'lган jamiyatning obyektiv qonunlari va qonuniyatlaridan kelib chiquvchi asosiy qoidalar sifatida belgilash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. M.Sharifxo'jayev, Y. Abdullayev, "Menejment"- Darslik, Toshkent: O'qituvchi-2001yil.
2. Sh.N.Zaynudinov, I.U.Murakayev, J.T.Sagdullayev, "Menejment asoslari"- Darslik, T.: Moliya -2001
3. D.S.Tulaganova, M.A.Akaitdinova, "Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi", T.: TDIU-2004yil